


ZOHID KAVSARIY QARASHLARIDA ILM, MAZHAB VA DINIY BAG‘RIKENGLIK MUNOSABATLARI

Xabibidinov Boburshox Abduvali o‘g‘li,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0001-4599-9431
e-mail: habibiddinovboburshox@gmail.com
https://doi.org/10.66803/2026.1.186

Annotatsiya. Maqolada XX asr hanafiy-moturidiy ilmiy muhitining yirik vakillaridan biri Muhammad Zohid al-Kavsariyning ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Unda asosiy manba sifatida “Muqaddimot al-imom al-Kavsariy” (“Imom Kavsariyning muqaddimalari”) to‘plami hamda “Maqolot al-Kavsariy” (“Kavsariy maqolalari”)dagi ilmiy-ma’rifiy, manbashunoslik va usuliy qarashlardan foydalanildi. Maqolada ilm Kavsariy nazdida faqat ma’lumot to‘plash emas, balki diniy mas’uliyat, manbaga sodiqlik, rivoyatni tekshirish va ilmiy odob mezoni sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Mazhab esa shariatni tizimli anglash, ixtilofni me’yorlashtirish va jamiyatda diniy barqarorlikni saqlash instituti sifatida talqin etiladi. Diniy bag‘rikenglik Kavsariy merosida haqiqat mezonlaridan voz kechish emas, dalil, odob, vasatiylik va ixtilof madaniyati asosida muvozanatli munosabat bildirish shakli ekani ko‘rsatiladi. Shu asosda Kavsariy ilmiy merosining zamonaviy diniy-ma’rifiy jarayonlarda radikal talqinlarga qarshi intellektual immunitetni kuchaytirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Zohid Kavsariy, Muqaddimot, ilm, mazhab, hanafiylik, moturidiylik, vasatiylik, diniy bag‘rikenglik, mo‘’tadil islom, ilmiy tanqid.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЗНАНИЯ, МАЗХАБА И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ВО ВЗГЛЯДАХ ЗАХИДА ал-КАВСАРИ

Хабибидинов Бобуршох Абдували угли,
исследователь Международной академии исламоведения Узбекистана
ORCID: 0009-0001-4599-9431
e-mail: habibiddinovboburshox@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются взгляды Мухаммада Захида ал-Кавсари, одного из крупных представителей ханафитско-матуридитской научной традиции XX века, на знание, мазхаб и религиозную толерантность. В качестве основных источников используются сборник “Мукаддимат ал-имам ал-Кавсари” и труд “Макалат ал-Кавсари”, в которых отражены его источниковедческие, методологические и религиозно-просветительские подходы. Показано, что знание в понимании ал-Кавсари не сводится к накоплению сведений, а выступает как форма религиозной ответственности, верности авторитетным источникам, проверки предания и

соблюдения научной этики. Мазхаб рассматривается как исторически сложившаяся методологическая школа системного понимания шариата, регулирования разногласий и поддержания социальной устойчивости мусульманского общества. Религиозная толерантность в наследии ал-Кавсари интерпретируется не как отказ от критериев истины, а как культура аргументированного, этичного и умеренного отношения к различным взглядам. Выявляется значение его наследия для укрепления интеллектуального иммунитета против радикальных интерпретаций и для корректного объяснения ханафитско-матуридитской традиции в современном религиозно-просветительском пространстве.

Ключевые слова: *Захид Кавсари, Мукаддимат, знание, мазхаб, ханафитская школа, матуридизм, васатийя, религиозная толерантность, умеренный ислам, научная критика.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN KNOWLEDGE, MADHHAB AND RELIGIOUS TOLERANCE IN THE VIEWS OF ZAHID AL-KAWTHARI

Boburshox A. Khabibidinov,
Researcher International Islamic Academy of Uzbekistan
ORCID: 0009-0001-4599-9431
e-mail: habibiddinovboburshox@gmail.com

Abstract. The article analyzes Muhammad Zahid al-Kawthari's views on knowledge, madhhab and religious tolerance as reflected in the twentieth-century Hanafi-Maturidi scholarly tradition. The main sources of the study are Muqaddimat al-Imam al-Kawthari and Maqalat al-Kawthari, which contain his source-critical, methodological and religious-educational arguments. The article shows that knowledge, in al-Kawthari's thought, is not merely the accumulation of information, but a form of religious responsibility, loyalty to authoritative sources, verification of transmission and commitment to scholarly etiquette. Madhhab is interpreted as a historically developed methodological school that enables a systematic understanding of Sharia, regulates scholarly disagreement and preserves social stability within Muslim society. Religious tolerance in al-Kawthari's legacy is not understood as abandoning truth criteria, but as a balanced culture of engagement based on evidence, etiquette, moderation and the ethics of disagreement. The article highlights the relevance of al-Kawthari's legacy for strengthening intellectual immunity against radical interpretations and for explaining the Hanafi-Maturidi tradition in contemporary religious and educational contexts.

Keywords: *Zahid al-Kawthari, Muqaddimat, knowledge, madhhab, Hanafi school, Maturidism, wasatiyyah, religious tolerance, moderate Islam, scholarly criticism.*

KIRISH

XX asr boshlari musulmon olamida siyosiy parchalanish, mustamlakachilikning kuchayishi, Usmoniylar davlatining inqirozi, diniy ta'lim tizimining izdan chiqishi va yangi g'oyaviy oqimlarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ana shu murakkab sharoitda an'anaviy islom ilmlari, xususan, hanafiy fiqhi, moturidiy kalomi, sunniy tasavvuf va hadis ilmi atrofida bahslar kuchaydi. Bir guruh mualliflar islom diniga oid merosni "asl manbalarga qaytish" shiori ostida soddalashtirishga intildi, boshqa bir

toifa esa klassik ilmiy maktablarni jamiyat taraqqiyotiga to‘siq sifatida ko‘rsata boshladi. Muhammad Zohid al-Kavsariy (1879–1952) ana shu jarayonda islom ilmlarining ichki intizomi, manbaga tayanish madaniyati va mazhabga oid merosning jamiyat hayotidagi tartiblovchi vazifasini himoya qilgan yirik olim sifatida maydonga chiqdi [Hallaq, 2005, p. 1–4; Bruckmayr, 2020, p. 293–325].

Kavsariy ilmiy faoliyatini faqat hanafiy mazhabini himoya qilish doirasida tushuntirish yetarli emas. Uning asarlarida manbalarni tanqidiy o‘rganish, rivoyatlarni tekshirish, islom fiqhiga oid merosni ushbu ilm usuli, ya’ni metodologiyasi asosida xolis ilmiy baholash, islom aqidasini sof holatda saqlash va ruhiy-axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘naltirish masalalari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan u so‘nggi Usmoniylar davridagi islom diniga oid ilmiy muhit bilan Misrdagi “al-Azhar” ilm dargohi atrofida shakllangan ilmiy muhitni bog‘lagan ko‘prik vazifasini bajargan. Kavsariyning “Muqaddimot al-imom al-Kavsariy” (“Imom Kavsariyning muqaddimalari”) va “Maqolot al-Kavsariy” (“Kavsariy maqolalari”) asarlari uning ilmiy pozitsiyasini bir vaqtning o‘zida manbashunoslik, fiqh, kalom, tasavvuf va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan o‘rganish imkonini beradi [Ahmad Khayrī, 1994, s. 28–57; Özafşar, 1996, s. 29–50].

Kavsariyda ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik bir-biridan ajralgan tushunchalar emas, balki yagona bir maqsadga xizmat qiluvchi omillar hisoblanadi. Uningcha, ilm dalilni bilish, manbani va rivoyatni tekshirish, diniy masalalar bo‘yicha o‘z shaxsiy qarorlarini ilgari surish, ya’ni “ijtihod” qilish sharti va mas’uliyatini anglashdan iborat. Mazhab ana shu ilmning tarixiy tajribada shakllangan tartibli yo‘lidir. Diniy bag‘rikenglik esa har qanday fikrni hech qanday mezonlarsiz qabul qilish emas, balki ixtiloflarni ilm, odob, adolat va ulamolar bir ovozdan qabul qilgan qarorlar asosidagi birlik doirasida boshqarish madaniyatidir. Olim qarashlarida bag‘rikenglik va qat’iylik o‘zaro zid tushunchalar emas, balki ular muvozanatli diniy tafakkurning ikki zarur qirrasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolada ko‘tarilgan mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, bugun diniy ma’lumotlar ochiq axborot maydonida tez tarqalayotgan bir davrda ilmiy asosga ega bo‘lmagan fatvolar, tarixiy manbalarni uzib talqin qilish va mazhabni inkor etish holatlari jamiyatda diniy tushunmovchiliklarni kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Ikkinchidan, diniy bag‘rikenglik tushunchasini ba’zan mazhabga xos aniqlikdan voz kechish yoki barcha diniy talqinlarni bir xil darajada haq deb ko‘rish sifatida noto‘g‘ri izohlanmoqda. Kavsariy ilmiy merosi bu ikkala jihatga ham “me’yordan og‘ish” bilan yondashishni ham tanqid qiladi: u mutaassib torlikni ham, mezonsiz erkinlikni ham ilmiy barqarorlikka xavf deb biladi.

O‘zbekistonda islom ilmlari ilmiy-ma’rifiy muhitida hanafiy-moturidiy an’anani tadqiq qilish, uni zamonaviy diniy-ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘lash va yoshlarda to‘g‘ri e’tiqod, sog‘lom tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Kavsariy merosini o‘rganish, uning ijtimoiy-diniy masalalarni birlamchi manbalarga tayangan holda to‘g‘ri metodologiya asosida hal qilish, bahs-munozara odobi va vasatiylik (o‘rtamiyonalik) haqidagi qarashlarini tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki olimning ushbu tadqiqotlari, bir tomondan, sunniylik ulamolari fikriy merosining ichki mantig‘ini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy diniy bahslarda ilmiy mezonlarni saqlash zarurligini eslatadi.

Kavsariy qarashlarida ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik qanday nazariy bog‘lanishga ega va bu bog‘lanish mo‘’tadil islom tafakkurini asoslashda qanday vazifa bajaradi? Maqoladan ko‘zda tutilgan maqsad Zohid Kavsariy merosidagi mazkur uch tushunchaning o‘zaro aloqasini “Muqaddimot” va “Maqolot” to‘plamlaridagi matnlar asosida ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ilmning

metodologik mazmuni, mazhabning diniy-ijtimoiy tartibdagi o‘rni, diniy bag‘rikenglikning olimga xos mezonlari va ushbu uchlikning zamonaviy diniy-ma’rifiy jarayonlar uchun ahamiyati ko‘rsatildi.

Ushbu mo‘jaz tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Kavsariy merosida ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik tushunchalari alohida-alohida emas, balki yagona nazariy tizim sifatida tahlil qilingani aniqlandi. Bu tizimda ilm manbani tekshirish va dalilni mas’uliyat bilan ishlatish mezoni bo‘lsa, mazhab ushbu ilmning ijtimoiy amaliyotda tartibga tushgan shakli, diniy bag‘rikenglik esa shu tartibning axloqiy natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv olimni faqat polemik muallif, balki sunniy merosda ilmiy intizom va ijtimoiy muvozanatni birlashtirgan mutafakkir sifatida baholashga imkon beradi.

MANBALAR VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy manbasi Zohid Kavsariyning “Muqaddimot al-imom al-Kavsariy” to‘plami, “Maqolot al-Kavsariy” kabi asarlari bo‘lib, ulardagi ilm, fiqh, fatvo, mazhab, sunnat va vasatiylikka oid matnlaridan foydalanilgan. Shuningdek, allomaning hanafiy imomlari haqidagi risolalari, ularning muqaddimalaridagi ayrim mulohazalari tahlilga jalb etilgan. “Muqaddimot” to‘plami olimning turli asarlarga yozgan kirishlari orqali uning metodologik qarashlarini ochib beradi. “Maqolot” esa zamonaviy bahslarga munosabat, ilmiy tanqid va diniy-ijtimoiy muvozanat masalalarini yoritadi [al-Kawtharī, 1997, s. 5–10; al-Kawtharī, 1994, s. 197–217].

Kavsariy hayoti va ilmiy muhitini o‘rganishda Ahmad Xayriy, Mehmet Emin Ozafshar, Yavuz, Filipp Bruckmayr va Emrah Bash tadqiqotlariga tayanilgan. Ahmad Xayriy allomaning hayot yo‘li, shogirdlari, Misrdagi ilmiy muhiti va tanqidiy uslubiga oid biografik ma’lumotlarni jamlagan. Ozafshar esa olimning hadis ilmidagi metodologik qarashlari, manbashunoslik mezoni va ilmiy ta’sirini tahlil qiladi [Ahmad Khayrī, 1994, s. 43–57; Özafşar, 1996, s. 29–50]. Bruckmayr tadqiqotida salafiy tanqidlar fonida moturidiy javobning kuchayishi va bu jarayonda olim merosining ta’siri ko‘rsatiladi [Bruckmayr, 2020, p. 293–325].

Mahalliy ilmiy muhitda Kavsariyning “Muqaddimot” asari mo‘’tadil islom g‘oyasi bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. Ushbu maqolada mazkur asarning tarkibiy tuzilishi, hanafiylikka oid mo‘’tadil g‘oyalar, buzg‘unchi qarashlarga berilgan ilmiy raddiyalar va vasatiylik masalalari tahlil qilingan. Unda mazkur yo‘nalish kengaytirilib, “ilm – mazhab – diniy bag‘rikenglik” uchligi mustaqil nazariy muammo sifatida ko‘rib chiqilgan.

Maqolada tarixiy-manbaviy tahlil usuli orqali olim yashagan davrning diniy-intellektual muhiti va uning ilmiy jihatlari o‘rganilgan. Kontent-tahlil usuli vositasida “Muqaddimot” va “Maqolot”da takrorlanadigan asosiy tushunchalar – ilm, mazhab, fatvo, sunnat, ijmo, istihson, vasatiylik, tasavvuf va bag‘rikenglik kategoriyalari ajratib berilgan. Qiyosiy tahlil usuli orqali Kavsariy qarashlari hanafiy-moturidiy an’ana, ash’ariy kalom va zamonaviy salafiylik g‘oyalari tanqidi fonida baholangan.

MUHOKAMA

Kavsariy qarashlarida ilm: manbani bilish, mas’uliyat va tanqidiy mezon. Olim nazdida ilm, avvalo, ishonchli manbani aniqlash madaniyatidir. U hadis, fiqh va kalom masalalarida rivoyat zanjiri, matn mazmuni, tarixiy muhit va ulamolarning ilmiy darajasini birgalikda ko‘rishni talab qiladi. Shuning uchun uning muqaddimalari oddiy kirish so‘zlari emas, balki asarning manbaviy qiymati, muallifning ilmiy maqomi, mavzuning tarixiy ildizi va bahs nuqtalarini belgilaydigan mustaqil

tadqiqot matnlaridir. “Muqaddimot”dagi ko‘plab muqaddimalar Kavsariyning kalom, fiqh, hadis, tarix, biografiya, tasavvuf va axloq masalalarini yagona ilmiy mezon asosida ko‘rganini ko‘rsatadi [al-Kawtharī, 1997, s. 8–9].

Kavsariy ilmni “ko‘p ma’lumot to‘plash” darajasida tushunmaydi. Uning metodologiyasida ilm – dalilni o‘rniga qo‘yish, manbani tekshirish, xulosani shariat, aql va ulamolar merosi bilan muvofiqlashtirishdir. Shu sababli u tayyorgarliksiz fatvo berish, kitoblardan uzib olingan iboralar asosida hukm chiqarish va omma oldida diniy masalalarni shov-shuvga aylantirishni keskin tanqid qiladi. Bu tanqid faqat bir shaxs yoki bir oqimga qaratilgan emas. U diniy bilimni mas’uliyatsiz ommalashtirishning ijtimoiy oqibatlarini ko‘rsatadi [Xabibidinov, 2026, b. 10–15].

Kavsariyning fatvo beruvchilar ko‘payib, har kim diniy masalalarga “hukmdorlik” da’vosi bilan aralashsa, jamiyatda firqalashuv va diniy tartibsizlik kuchayishi haqidagi fikrlari uning ilm haqidagi qarashlarini yanada oydinlashtiradi. U “kemada dengizchilar ko‘paysa, kema cho‘kadi” mazmunidagi ifoda orqali diniy hayotda mutaxassislik, mas’uliyat va tartib zarurligini ramziy tarzda tushuntiradi. Bu yerda kema – ummatning diniy hayoti, dengizchilar – fatvo berish da’vosidagi tayyorgarliksiz shaxslar, cho‘kish xavfi esa ilmiy mezonsizlik oqibatida yuzaga keladigan parokandalikdir. Demak, ilm olim nazdida erkin fikrga qarshi vosita emas. Aksincha, u erkin fikrning mas’uliyatli ishlashini ta’minlaydigan axloqiy va metodologik chegaradir. Bunday chegara bo‘lmasa, “ijtihod” shaxsiy ta’bga, “tanqid” esa oddiy inkorga aylanishi mumkin. Muallifning ilmiy talabchanligi shu nuqtada namoyon bo‘ladi: u har qanday fikrni manba, usul va ulamo merosi bilan qiyoslashni talab qiladi.

Kavsariyning tanqidiy uslubi ba’zan keskin ko‘rinsa-da, uni faqat polemik kayfiyat bilan izohlash to‘g‘ri emas. Uning keskinligi manba, mazhab va sunniy merosni himoya qilish maqsadidan kelib chiqqan ilmiy pozitsiya sifatida tushunilishi lozim. Turkiya diyonat vaqfi Islom ensiklopediyasida (TDV İslâm Ansiklopedisi) Kavsariy so‘nggi davr Usmoniy ulamolaridan biri sifatida tavsiflanadi va uning Do‘zjada tug‘ilishi, Istanbulda ilm olishi, Misrdagi faoliyati hamda keng ilm sohalari bilan shug‘ullangani qayd etiladi. Bu ma’lumotlar uning tanqidiyligini muayyan tarixiy-intellektual muhit bilan bog‘lab tushunishga yordam beradi [Yavuz, 2013].

Kavsariyda ilm uch vazifani bajaradi: birinchisi, matn va manbalarning ishonchliligini tekshirish; ikkinchisi, diniy hukmni shaxsiy havas yoki ommaviy kayfiyatdan himoya qilish; uchinchisi, ixtilofni hissiy maydondan dalilga tayangan ilmiy maydonga olib chiqish. Shu jihatdan ilm diniy bag‘rikenglikning ham shartidir. Chunki ilmsiz bag‘rikenglik mezonsizlikka, ilmsiz qat’iylik esa mutaassiblikka aylanishi mumkin.

Bu xulosa zamonaviy diniy-ma’rifiy muhit uchun ham muhim. Bugun diniy matnlar qisqa iqtiboslar, ijtimoiy tarmoqlardagi keskin bahslar va kontekstdan uzilgan ma’lumotlar orqali tez tarqaladi. Kavsariyning manbaga qaytish haqidagi talabi esa bunday tezkor axborot muhitida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, matnni tarixiy va usuliy kontekstda o‘qish, fatvo bilan fikr, dalil bilan da’vo o‘rtasini farqlash zarurligini eslatadi.

Mazhab faqatgina huquqiy maktab emas, balki ilmiy xotira va ijtimoiy tartib instituti sifatida baholanadi Kavsariy tomonidan. Olimning qarashlarida mazhab tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. U mazhabni shaxslarga ko‘r-ko‘rona ergashish sifatida emas, Qur’on, sunnat, ijmo, qiyos, istihson va boshqa usuliy (metodologik) vositalar asosida shakllangan ilmiy maktab sifatida tushuntiradi. Mazhab bir necha asrlik ilmiy tajriba, mutaxassislar mehnati, manbalar bilan ishlash qoidalari va fatvo

an’anasining yig‘indisidir. Mazhabni inkor etish esa ayrim fiqhiy xulosalarni tanqid qilish emas, balki shariatni tartibli tushunish tizimini zaiflashtirish xavfini keltirib chiqaradigan yo‘nalishdir [al-Kawtharī, 2012, s. 79–83].

Olim hanafiylikni himoya qilar ekan, uni boshqa mazhablarni inkor etish asosiga qurmaydi. U hanafiy maktabining usuliy kuchini, hadis va fiqhni uyg‘un tushunishini, amaliy hayotga moslashuvchanligini ko‘rsatishga intiladi. “Al-G‘urra al-Munifa fi tahqiq ba’d Masoil al-Imom Abi Hanifa” (“Abu Hanifaga oid ba’zi masalalarni tekshirishdagi ulug‘vor yorqinlik”), “Tabyin kizb al-muftariy fi ma nusiba al-Imom Abi-l-Hasan al-Ash’ariy” (“Imom Abu-l-Hasan al-Ashariyga nisbat berilgan yolg‘onlarni tarqatgan tuhmatchini fosh qilish”), “Nasb ar-roya fi taxrij ahodis al-Hidoya” (“al-Hidoya”dagi hadislarning taxriji bo‘yicha “Bayroqni tiklash”) kabi asarlarga yozgan muqaddimalarida u hanafiy merosni faqat tarixiy xotira emas, balki uslubiy mustaqillik va ilmiy tizim sifatida ochib beradi [al-Kawtharī, 1997, s. 449–455].

Mazhabga munosabatda Kavsariyning asosiy mezoni adolatdir. U bir mazhabni himoya qilish uchun boshqa mazhablarni kamsitish yo‘lini tanlamaydi. Aksincha, mazhablararo bahslarda dalilga murojaat qilish, muallif so‘zini to‘liq tushunish, tarixiy vaziyatni hisobga olish va shaxsga emas, fikrga munosabat bildirish zarurligini uqtiradi. Bu jihat uning diniy bag‘rikenglikka munosabati uchun ham asos bo‘ladi. Chunki mazhabga ergashish saqlangan joyda ixtilof ilm darajasida qoladi, mazhabga ergashish inkor qilingan joyda esa har bir shaxs o‘zini mustaqil muftiy sifatida ko‘rsatish xavfi kuchayadi. Uning “mazhabsizlik” haqidagi tanqidlarini aynan shu kontekstda tushunish zarur. U mazhabsizlikni faqat boshqa mazhabga mansublik yoki mustaqil xulosa chiqarish bilangina tenglashtirmaydi. Balki uning tanqidi, asosan, ilmsiz fatvo berish da’vosi, ulamolar silsilasini rad etish, fiqhiy merosni ijtimoiy tartibdan uzish va omma oldida din nomidan shaxsiy xulosalarni tarqatish holatlariga qaratilgan. Shuning uchun olimga ko‘ra, mazhablilik mutaassiblik emas, balki u manba, uslub va mas’uliyatni saqlash usulidir [al-Kawtharī, 1994, s. 197–217].

Bu nuqtada Vael Hallaq (Wael B. Hallaq) qalamiga mansub islom huquqi tarixi haqidagi tadqiqotlari bilan Kavsariy qarashlari o‘rtasida metodologik yaqinlik ko‘rinadi. Vael Hallaq islom huquqiy an’anasida uzluksizlik va o‘zgarish bir-birini inkor qilmasligini, fiqhiy maktablar huquqiy tafakkurning institusional shakli bo‘lganini ko‘rsatadi [Hallaq, 2001, p. 1–16]. Kavsariy ham mazhabni shariatni tushunishdagi tarixiy tajriba va mutaxassislik instituti sifatida talqin qiladi. Farq shundaki, u bu masalani ichki sunniy meros himoyasi nuqtayi nazaridan, Vael Hallaq esa huquq tarixi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham moturidiylik va hanafiylikning o‘zaro bog‘liqligi, salafiy tanqidlar fonida mazhabiy ongning qayta faollashgani qayd etiladi. Filipp Bruckmayr tadqiqotida salafiylar tomonidan qilinayotgan tanqidlar oxirgi o‘n yilliklarda moturidiylikka ham yo‘nalgani, bu esa hanafiy olimlar o‘rtasida teologik mazhab ongini kuchaytirgani ta’kidlanadi. Bu holat Kavsariy merosining hozirgi kunda ham nazariy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi [Bruckmayr, 2020, p. 293–325].

Kavsariy nazdida mazhab uch vazifani bajaradi: shariatni tushunish uchun metodologik yo‘l beradi; musulmon jamoasida huquqiy-axloqiy barqarorlikni saqlaydi; diniy bag‘rikenglikni tartibga soladi. Mazhab bo‘lmasa, bag‘rikenglik shaxsiy xohishlarga, qat’iylik esa dalilsiz ayblovga aylanishi mumkin. Mazhab esa har ikki holatni ilm va usul doirasiga soluvchi mezondir.

Shuning uchun olim merosini hozirgi diniy ta’limda faqat mazhab himoyasi asosi sifatida emas, balki ilmiy tartib va ijtimoiy barqarorlik nazariyasi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Mazhabni zamonaviy yoshlarga tushuntirishda uni “qadimiy odat” sifatida emas, balki mutaxassislik, manbaga tayanish va jamoaviy tajriba maktabi sifatida sharhlash zarur.

Diniy bag‘rikenglik: mezonsiz murosa emas, vasatiylik va ixtilof odobi. Kavsariy qarashlarida diniy bag‘rikenglikni zamonaviy ma’nodagi umumiy “tolerantlik” tushunchasi bilan to‘la tenglashtirish to‘g‘ri emas. U bag‘rikenglikni aqidaviy mezonlardan voz kechish yoki barcha diniy da’volarni haqiqat deb e’tirof etish sifatida ko‘rmaydi. Uningcha, mo‘’tadillik haqiqat mezonlarini saqlagan holda ixtilofni adolat, odob va ilm bilan boshqarishdir. Shu sababli u vasatiylikni ikki chekkadan saqlanish: bir tarafdan, dinni dag‘al zohirparastlikka tushirishdan, boshqa tarafdan esa matn va sunnatni butunlay sub’ektiv ta’villarga bo‘ysundirishdan himoya qilish sifatida tushuntiradi.

“Muqaddimot” asarida islom aqidasining shakllanish jarayonini tarixiy manzarada berib, asosiy e’tiborni jamoani ifrot va tafritga tortayotgan noto‘g‘ri talqinlarni fosh etishga qaratadi. Unga ko‘ra, haq yo‘l ikki chegara o‘rtasidagi adolatli yo‘l – vasatiylikdir. Bu fikrdan ko‘rinadiki, Kavsariy uchun diniy bag‘rikenglikning birinchi sharti me’yordir. Me’yorsizlik ilmni shov-shuvga, fatvoni shaxsiy hukmga, ixtilofni dushmanlikka aylantiradi.

Olim tasavvufga munosabatida ham shu mo‘’tadil mezonni qo‘llaydi. U tasavvufni butunlay rad etishga intilgan qarashlarni tanqid qiladi, ammo har qanday tasavvufiy amaliyotni tanqidsiz qabul qilishni ham ilmiy yo‘l deb bilmaydi. Emrah Bash tadqiqotida Kavsariyning sunniy tasavvuf, xususan, Junayd Bag‘dodiy (830–910) yo‘nalishida shakllangan axloqiy-ruhiy tarbiyani yuqori baholaganligi, tasavvufni taqvo, axloqiy kamolot va ruhiy tarbiya bilan bog‘lagani qayd etiladi [Baş, 2021]. Bu olim bag‘rikengligining yana bir qirrasini ochadi: u diniy amaliyotlarni umumiy ayblov bilan emas, sunniy mezon, manba va axloqiy samara asosida baholaydi.

Diniy bag‘rikenglikning ikkinchi sharti – ixtilof odobidir. Kavsariy ilm ahlining vazifasini boshqa fikr egasini yo‘q qilish emas, dalilni ko‘rsatish, xato nisbatlarni tuzatish va umumiy diniy merosni himoya qilish deb biladi. Bu yondashuv maqolaning markaziy natijasi uchun muhim: unga ko‘ra, bag‘rikenglik zaiflik emas, ilmiy kuchning axloqiy shaklidir. Ilmiy kuch dalilsiz haqorat qilmaydi, ammo dalilsizlikni ham “murosa” nomi bilan oqlamaydi.

Uchinchi shart – ijtimoiy barqarorlikni inobatga olishdir. Kavsariy fatvo, mazhab, sunnat va ijmo masalalarini faqihlar o‘rtasidagi ichki nazariy bahs sifatida emas, musulmon jamiyatining birligi va axloqiy tartibi bilan bog‘liq masala sifatida ko‘radi. U manbasiz fatvolar va ommaviy diniy hukmlar jamiyatda ishonchni susaytirishi, firqaviylashishni kuchaytirishi va diniy bag‘rikenglikni zaiflashtirishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan olim merosi diniy-ma’rifiy siyosatda bilimlilik, ehtiyotkorlik va manbashunoslik madaniyatini kuchaytirishga da’vat qiladi.

Kavsariyda diniy bag‘rikenglikning to‘rtinchi sharti – umumiy sunniy birlikni saqlashdir. U hanafiylikni himoya qilar ekan, ahli sunna doirasidagi boshqa maktablarni inkor etmaydi. Ash’ariylik va moturidiylik o‘rtasidagi yaqinlik, hanafiy fiqhi va moturidiy kalomining tarixiy uyg‘unligi, tasavvufning sunniy tarbiya tizimidagi o‘rni uning matnlarida bir butun diniy meros sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv dunyoqarash torligini emas, ilmiy an’anaga sadoqatni ko‘rsatadi [Ahmad Khayrī, 1994, s. 43–57].

Bu jihatlarni hisobga olganda, Kavsariy merosida bag‘rikenglik “hamma fikr to‘g‘ri” degan nisbiylik emas, balki “har bir fikr dalil va odob bilan baholanadi” degan ilmiy madaniyatdir. Uning

nazdida haqiqat mezonlari bo‘lmagan muloqot ilmiy bo‘la olmaydi; odob va adolat bo‘lmagan raddiya esa sunniy axloqqa muvofiq kelmaydi. Shu ikki mezon – haqiqat va odob – olimda bag‘rikenglikning ichki ustunini tashkil qiladi.

Bugungi diniy-ma’rifiy muhitda bag‘rikenglik ko‘pincha ijtimoiy tinchlik tushunchasi bilan bog‘lanadi. Kavsariy merosi esa bu tushunchani yanada chuqurlashtiradi: ijtimoiy tinchlik faqat shior bilan emas, ilmiy mas’uliyat, manbaga sadoqat, ixtilof odobi va mutaxassislikni tan olish bilan mustahkamlanadi. Shu sababli uning qarashlari diniy bag‘rikenglikni faqat siyosiy-ijtimoiy talab emas, balki sunniy ilmiy an’ananing ichki axloqiy prinsipi sifatida asoslashga xizmat qiladi.

Natijalarning zamonaviy diniy-ma’rifiy jarayonlar uchun ahamiyati. Olingan natijalar Kavsariy qarashlarida ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik o‘rtasida ichki bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Unda ilm mazhabni asoslaydi, mazhab ilmni ijtimoiy va huquqiy tizimga aylantiradi, diniy bag‘rikenglik esa ana shu tizimning axloqiy va ijtimoiy samarasi sifatida yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, uning uchun bag‘rikenglik avval manbaga ehtirom, keyin ixtilof odobi, so‘ng jamiyat birligini saqlashga xizmat qiladigan mo‘’tadil munosabatdir [al-Kawtharī, 1994, s. 207–217].

Bu yondashuvni hozirgi diniy-ma’rifiy muhit uchun qo‘llashda bir necha jihat muhim. Avvalo, diniy ta’limda “manba bilan ishlash” madaniyatini kuchaytirish zarur. Yoshlar va keng jamoatchilik diniy ma’lumotni tez qabul qiladigan axborot maydonida yashamoqda. Bunday sharoitda Kavsariyning manba, rivoyat, matn va tarixiy kontekstni birgalikda tekshirish haqidagi talabi muhim metodik yo‘llanma bo‘la oladi. Diniy matnni fragment sifatida emas, ilmiy an’ana ichida o‘qish kerak.

Ikkinchi jihat – mazhabni zamonaviy tilda tushuntirishdir. Mazhabni tor guruhchilik yoki tarixiy odat sifatida ko‘rsatish uning asosiy mohiyatini yo‘qotadi. Kavsariy merosidan kelib chiqilsa, mazhab bilimni ijtimoiy mas’uliyatga aylantiruvchi institutdir. Bu institut insonni har bir masalada mustaqil da’vogar bo‘lishdan saqlaydi, mutaxassislikni tan olishni o‘rgatadi va jamoaviy diniy amaliyotda tartib yaratadi. Shu ma’noda mazhabni tushuntirish hozirgi diniy bag‘rikenglik madaniyatining ham muhim qismi bo‘lishi kerak.

Uchinchi jihat – tasavvuf, kalom va fiqhni bir-biridan ajratmasdan tushuntirishdir. Kavsariy sunniy merosni yaxlit ko‘radi. U fiqhni amaliy tartib, kalomni aqidaviy barqarorlik, tasavvufni axloqiy-ruhiy tarbiya sifatida baholaydi. Bu uch soha birgalikda ishlaganda mo‘’tadil diniy shaxsiyat shakllanadi. Birini ikkinchisiga qarshi qo‘yish esa sunniy merosni sun’iy parchalashga olib keladi [al-Kawtharī, 1997, s. 551–567].

To‘rtinchi jihat – ilmiy tanqid madaniyatidir. Kavsariy tanqid qiladi, ammo tanqidning ob’ekti shaxsning ijtimoiy mansabi emas, uning dalili va manbasidir. U xato bilan kurashishda manba, tarix va ilmni asos qiladi. Bugungi ilmiy muhitda bu usul foydali: biror qarashni tanqid qilishda uning manbasi, ilmiy konteksti va ijtimoiy ta’siri birgalikda tahlil qilinishi kerak. Aks holda, tanqid ilmiy bahsdan chiqib, shaxsiy munosabat yoki ommaviy shov-shuv darajasiga tushib qoladi.

Kavsariy qarashlarini mutlaqlashtirish ham ilmiy maqsadga muvofiq emas. U muayyan tarixiy sharoitda yashagan, ayrim matnlarida keskin polemik uslubdan foydalangan. Shu sababli uning merosini bugungi jamiyatga tatbiq etishda usulni uslubdan, manbaviy talabchanlikni tarixiy keskinlikdan, vasatiylik nazariyasini shaxsiy raddiyalardan ajratib olish zarur. Ana shunda olim merosi diniy bag‘rikenglikni kuchaytiruvchi ilmiy resursga aylanadi.

Kavsariy merosidan chiqadigan amaliy natija shundaki, diniy-ma’rifiy ishlarda radikal talqinlarga qarshi kurash faqat inkoriy bayonotlar bilan cheklanmasligi kerak. Buning o‘rniga manba

bilan ishlash madaniyati, mazhabiy merosni to‘g‘ri tushuntirish, ixtilofni odob bilan boshqarish va yoshlarda ilmga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish zarur. Bu vazifalar olim ilmiy merosini zamonaviy sharoitda qayta o‘qishning asosiy sabablaridan biridir.

Kavsariy merosining manbashunoslik va diniy-ma’rifiy kontekstdagi o‘rni. Olim ilmiy merosini baholashda uning “muqaddima” janriga bergan mazmuniy yuki alohida e’tiborga loyiq. An’anaviy kitobchilikda muqaddima ko‘pincha asarning maqsadi, muallifi va mavzusiga qisqa kirish vazifasini bajargan. Kavsariyda esa muqaddima mustaqil manbashunoslik tadqiqotiga aylanadi. U asar muallifining ilmiy zanjiri, matnning tarqalish tarixi, uning sunniy merosdagi o‘rni, unga nisbatan bildirilgan e’tirozlar va mazkur e’tirozlarga beriladigan javoblarni bir joyga jamlaydi. Shu sababli “Muqaddimot” to‘plami faqat bir necha asarlarga yozilgan kirishlar majmuasi emas, balki uning ilmiy tafakkur laboratoriyasi sifatida ko‘riladi [al-Kawtharī, 1997, s. 5–10].

Bu xususiyat Kavsariyning ilm haqidagi qarashlari bilan bevosita bog‘liq. Unga ko‘ra, asarni o‘qishdan avval uning muallifi, manbasi, nusxasi, ilmiy muhiti va maqsadini bilish zarur. Bu talab, ayniqsa, diniy matnlar bilan ishlashda muhimdir. Chunki diniy xulosa faqat matndan emas, matnning kim tomonidan, qanday sharoitda, qanday usul bilan va qaysi ilmiy an’ana ichida aytilganidan ham kelib chiqadi. Olim mana shu jihatlarni e’tibordan soqit qilishni ilmning ichki intizomiga zid deb biladi.

Kavsariyning ilmiy uslubi uning hadis va fiqh o‘rtasidagi munosabatni tushuntirishida ham ko‘rinadi. U hadisni fiqhdan ajratib qo‘ymaydi, fiqhni esa hadisga begona bir huquqiy fikr sifatida ko‘rmaydi. Aksincha, hadis rivoyati va fiqhiy istidlol o‘rtasidagi bog‘lanishni u ulamolarning ko‘p asrlik tajribasi orqali tushuntiradi. Bu yerda mazhabning vazifasi rivoyatni amaliyotga tatbiq etishda usuliy tartib berishdir. Hanafiylikni himoya qilishda u aynan shu nuqtani ta’kidlaydi: Abu Hanifa (699–767) va uning maktabi hadisdan yiroq emas, balki hadisni fiqhiy usul bilan anglash yo‘lini shakllantirgan [al-Kawtharī, 2012, s. 79–83].

Kavsariyning mazhab haqidagi qarashlarini faqat himoyaviy polemika deb baholash uning ilmiy dasturini qisqartirib qo‘yadi. Uning maqsadi muayyan maktabni boshqalardan ustun qo‘yish emas, balki ilmda meros, silsila va usulning ahamiyatini ko‘rsatishdir. Bu jihatdan mazhab olimga ko‘ra, “muayyan fikrlar to‘plami” emas, balki fikr yuritish intizomidir. U musulmon jamoasini har bir yangi da’vo ortidan ergashib ketishdan, diniy masalalarni hissiy muhokamaga aylantirishdan va fiqhiy merosni shaxsiy iddaolar bilan almashtirishdan saqlaydi.

Shu o‘rinda, Kavsariyning salafiy-islohotchi tanqidlarga munosabati ham muhim. XX asr boshlarida “asl manbaga qaytish” shiori ba’zan fiqhiy maktablarni inkor qilish, kalomiy merosni ishonchsizlashtirish va tasavvufni umumiy tarzda rad etish bilan bog‘landi. U bu shiorning o‘ziga emas, uning ilmiy merosni kesib tashlovchi shakliga e’tiroz bildiradi. Unga ko‘ra, Qur’on va sunnatga qaytish ulamolar merosini chetga surish orqali emas, balki ana shu merosda shakllangan usul va odob orqali amalga oshadi [Bruckmayr, 2020, p. 293–325].

Bu nuqta Kavsariyning moturidiylikka munosabatida ham yaqqol ko‘rinadi. Moturidiy kalomi hanafiy fiqhiy muhitda shakllangan aqidaviy tafakkur maktabi sifatida uning uchun sunniy merosning muhim qismi hisoblanadi. U aqidani oddiy shior yoki hissiy tasdiq sifatida emas, balki dalil, aql va naql muvozanatida tushunadi. Shu sababli moturidiylikni himoya qilish uning nazdida faqat tarixiy maktabni himoya qilish emas, balki diniy tafakkurni ifrot va tafritdan saqlash vazifasini bajaradi.

Kavsariyning tasavvufga munosabati ham muvozanatlidir. U tasavvufdagi axloqiy tarbiya, nafsni poklash, taqvo va ma’rifatga intilishni sunniy merosning muhim qirrasi sifatida qadrlaydi. Biroq tasavvuf nomi bilan asosli manbalarga zid amaliyotlar yoki shariatdan uzilgan da’volar paydo bo‘lsa, ularni ham tanqiddan xoli qoldirmaydi. Demak, uning bag‘rikengligi umumiy qabulchilik emas, balki manba va axloqiy natijaga asoslangan baholashdir [Baş, 2021].

Kavsariyda diniy bag‘rikenglikning yana bir muhim jihati shaxs va fikrni ajrata bilishdir. U ilmiy matnlarda ba’zan keskin tanqid qilsa ham, asosiy e’tiborni shaxsning ijtimoiy mavqei yoki hissiy qabul qilinishiga emas, dalilning kuchiga qaratadi. Bu yondashuv bugungi akademik muhit uchun ham muhim: olim biror qarashni rad etganda, uning egasini kamsitish emas, balki dalilning zaif yoki kuchli tomonini ko‘rsatishga harakat qilishi kerak. Shunda tanqid ilmiy odob doirasidan chiqmaydi.

Olimning “ilm – mazhab – bag‘rikenglik” modeli uch bosqichdan tashkil topishini ko‘rsatadi. Birinchi bosqichda ilm manba va dalilni tekshiradi; ikkinchi bosqichda mazhab bu dalilni usuliy tizimga joylashtiradi; uchinchi bosqichda bag‘rikenglik ixtilofni adolatli va odobli munosabatga aylantiradi. Bu uch bosqichdan biri zaiflashsa, butun tizimda muvozanat buziladi. Masalan, ilmsiz mazhab odatga, mazhabsiz ilm tarqoq da’voga, bag‘rikengliksiz qat’iylik esa ijtimoiy ziddiyatga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida hanafiy-moturidiy merosni o‘rganishda Kavsariy qarashlari shu jihatdan amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, u diniy bilimni mutaxassislik va mas’uliyat bilan bog‘laydi. Ikkinchidan, mazhabni jamiyatda diniy amaliyotning barqaror shakli sifatida ko‘rsatadi. Uchinchidan, bag‘rikenglikni ilmdan uzilmagan holda talqin qiladi. Bunday yondashuv diniy ta’lim, imom-xatiblar malakasini oshirish, yoshlar bilan ma’rifiy ishlash va ommaviy diniy axborotni tahlil qilish jarayonlarida nazariy asos bo‘la oladi.

Olim merosini zamonaviy auditoriyaga tushuntirishda uning uslubidagi tarixiy keskinlikni emas, metodidagi ilmiy talabchanlikni birinchi o‘ringa qo‘yish lozim. Chunki har bir davrning bahs tili turlicha bo‘ladi, ammo manbaga sadoqat, dalilga tayanish, ulamo merosini hurmat qilish va ixtilofni odob bilan boshqarish kabi prinsiplar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shu nuqta Kavsariy merosining hozirgi diniy-ma’rifiy jarayonlar uchun eng barqaror qimmatidir.

Kavsariy qarashlarini qo‘llashda yana bir ehtiyot nuqtasi bor: uning merosini faqat raddiya janrida o‘qish maqolada ko‘rsatilgan muvozanatni buzishi mumkin. Uning asarlarida raddiya bor, ammo bu raddiyaning ortida manbashunoslik, fiqhiy usul, kalomiy me’yor va axloqiy tarbiya haqidagi kengroq nazariy maqsad yotadi. Shuning uchun olim merosini o‘rganishda “kimni rad etdi?” degan savol bilan birga “qaysi ilmiy mezonni himoya qildi?” degan savol ham markazda turishi kerak.

Mazkur tahlil Kavsariy merosini islomshunoslik, tasavvuf va sharq falsafasi tarixi yo‘nalishida tadqiq qilish uchun muhim nazariy nuqtalarni ochadi. Unda fiqh huquqiy amaliyot, kalom aqidaviy tafakkur, tasavvuf axloqiy tarbiya, manbashunoslik esa ilmiy intizom sifatida bir-biri bilan bog‘lanadi. Bu bog‘lanish uni bir sohaning emas, balki sunniy ilmiy merosning bir necha qatlamlarini birlashtirgan alloma sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Ilmiy natijalarni talqin qilish va amaliy tatbiq imkoniyatlari. Olim merosida ilmning markaziy o‘rin egallashi uning diniy bilimga faqat nazariy axborot sifatida emas, balki mas’uliyatli ijtimoiy amal sifatida qaraganini ko‘rsatadi. Diniy bilim omma ongiga ta’sir qiladi, jamoa amaliyotini yo‘naltiradi va ixtiloflarning qay darajada tinch yoki keskin kechishini belgilaydi. Shu bois Kavsariy

uchun bilimning ishonchliligi masalasi shaxsiy fazilat emas, balki umumjamoaviy xavfsizlik bilan bog‘liq masaladir.

Bu fikrni hozirgi axborot makonida yanada aniqroq ko‘rish mumkin. Diniy savolga tezkor javob izlash, qisqa videolar va ijtimoiy tarmoqlardagi da’vatlar orqali hukm chiqarish odati manba bilan ishlash madaniyatini zaiflashtirishi mumkin. U esa har bir diniy xulosa ortida matn, sanad, sharh, mazhabiy usul va ulamo tajribasi turishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu talab bugun ham o‘z kuchini saqlaydi.

Kavsariyning mazhabni himoya qilishi, aslida, diniy bilimning institusional xotirasini himoya qilishdir. Har bir mazhab asrlar davomida savollarga berilgan javoblar, ijtimoiy sharoitlar, qiyosiy mulohazalar va amaliy tajribalarni o‘zida jamlagan. Shuning uchun mazhabni inkor etish faqat bir necha fiqhiy hukmni rad etish emas, balki butun bir bilim tizimini beqarorlashtirish ehtimolini keltirib chiqaradi.

Mazhabni himoya qilishda mutaassiblikka tushib qolmaslik Kavsariy metodining muhim jihatidir. U hanafiylikni asoslar ekan, uning dalili, tarixi va usulini ko‘rsatadi. Ammo bu jarayonda boshqa sunniy mazhablarni rad etishni maqsad qilmaydi. Bu nuqta diniy bag‘rikenglik uchun muhim: haqiqiy mazhabiylik boshqani inkor qilish bilan emas, o‘z an’anasini ilm bilan tushuntirish bilan namoyon bo‘ladi.

Kavsariy qarashlarida bag‘rikenglikni muvozanatli tushunish lozim. Unga ko‘ra, bag‘rikenglikning chegarasi bor: dalilsizlik, ilmsiz fatvo va jamoani parokanda qiluvchi da’volar “murosa” nomi bilan oqlanmaydi. Shu bilan birga, har qanday xato fikr egasiga nisbatan axloqsiz munosabat bildirish ham to‘g‘ri emas. Demak, uning modelida bag‘rikenglik dalil va odobning birlashuvidan hosil bo‘ladi.

Kavsariyning ixtilof odobi haqidagi yondashuvi islom ilmiy an’anasidagi “adab al-ixtilof” tushunchasi bilan hamohang. Islom tarixida mazhablar o‘rtasida turli masalalarda ixtiloflar bo‘lgan, ammo bu ixtiloflar umumiy ilm, taqvo va manbaga tayanish mezoni doirasida kechgan. Olim ana shu an’anani tiklashga harakat qiladi. U ixtilofni yo‘q qilishga emas, uni ilm va odob doirasida boshqarishga intiladi.

Kavsariy merosining yana bir muhim tomoni – diniy matnni tarixiy vaziyatdan ajratmaslikdir. U turli asarlarga yozgan muqaddimalarida muallif yashagan davr, bahsning sababi, asarning yozilish sharoiti va keyingi qabul qilinish jarayonini hisobga oladi. Bu metodologiya zamonaviy islomshunoslik tadqiqotlari uchun ham ahamiyatlidir, chunki har bir matn o‘z davrining savollariga javob sifatida shakllanadi.

Maqolada tahlil qilingan manbalardan ko‘rinadiki, Kavsariy uchun ilmiy adolat faqat o‘z maktabini himoya qilish emas, balki qarshi tomon fikrini ham to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri keltirishdir. U noto‘g‘ri nisbatlar, asossiz ayblovlar va matnni uzib talqin qilishni ilmga xiyonat deb biladi. Bu jihat zamonaviy akademik etika bilan ham uyg‘un: tanqid aniq manba, to‘liq kontekst va xolis baholashga tayanishi kerak.

Olim ilmiy merosini o‘rganishda uning Azhar muhitidagi faoliyati ham e’tiborga molik. Misrda u turli diniy-intellektual oqimlar bilan yuzma-yuz keldi, an’anaviy ilmlarni himoya qilish bilan birga yangi bahslarga ham javob berdi. Bu sharoit uning asarlaridagi tanqidiy ruhni kuchaytirgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun uning uslubini baholashda tarixiy sharoitni hisobga olish zarur.

Kavsariyning hanafiy-moturidiy merosga tayanishini hozirgi Markaziy Osiyo diniy muhiti bilan bog‘lash mumkin. Bu mintaqada hanafiy fiqhi va moturidiy aqidasi uzoq tarixiy an’anaga ega. Shu bois, uning merosini o‘rganish mahalliy ilmiy maktablar uchun tashqi mavzudan ko‘ra, o‘z tarixiy ilmiy xotirasini anglash vositasi sifatida ahamiyatlidir. Bu meros orqali mazhab, aqida va axloqni birgalikda tushuntirish imkoni paydo bo‘ladi.

Yoshlar bilan diniy-ma’rifiy ishlarda Kavsariy qarashlaridan foydalanishning amaliy yo‘li bor. Birinchidan, diniy bilim manbalarini tekshirish bo‘yicha qisqa metodik ko‘rsatmalar tayyorlash mumkin. Ikkinchidan, mazhab tushunchasini “erkinlikka zid” emas, balki “bilimni tartibga soluvchi yo‘l” sifatida tushuntirish zarur. Uchinchidan, ixtilof madaniyati haqida alohida ma’rifiy materiallar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Kavsariy merosi diniy radikalizmga qarshi kurashda ham nazariy ahamiyatga ega. Radikal talqin ko‘pincha matnni yagona ma’no bilan cheklash, ulamo merosini rad etish, ixtilofni dushmanlik sifatida ko‘rish va o‘z xulosasini mutlaqlashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Olim esa bunday yondashuvga qarshi manba, mazhab, silsila, odob va vasatiylikni qo‘yadi. Bu besh mezon radikal soddalashtirishga qarshi ilmiy himoya vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, Kavsariy merosini faqat radikalizmga qarshi vosita sifatida emas, ijobiy ma’rifiy dastur sifatida ham o‘qish lozim. Uning asarlari o‘quvchiga diniy bilimning qanday shakllanishi, mutaxassislik nima uchun kerakligi, ixtilof qanday boshqarilishi va haqiqatni himoya qilishda odobning o‘rni qanday ekanini ko‘rsatadi. Bu jihat uning merosini ta’limiy nuqtayi nazardan ham qimmatli qiladi.

Maqolaning asosiy natijalari Kavsariydagi uchlikni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ilm bo‘lmasa, mazhab o‘z mazmunini yo‘qotadi; mazhab bo‘lmasa, ilm jamoaviy amaliyotda tartibsiz qoladi; bag‘rikenglik bo‘lmasa, ilm va mazhab ijtimoiy muloqotda keskinlik manbaiga aylanishi mumkin. Shuning uchun Kavsariy merosida ushbu uch tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi va nazorat qiluvchi tizim sifatida ishlaydi.

Bu tizimni ilmiy tilda shunday ifodalash mumkin: ilm – epistemologik asos, mazhab – metodologik va institusional shakl, bag‘rikenglik – axloqiy-ijtimoiy natijadir. Kavsariyning o‘zi buni aynan shu terminlar bilan bayon qilmagan bo‘lsa-da, uning asarlaridagi umumiy mantiq ana shu sxemaga mos keladi. Maqolaning nazariy hissasi ham shu umumlashtirishda ko‘rinadi.

Kelgusida olim asarlarini yanada chuqur o‘rganish uchun uning har bir muqaddimasini alohida tematik guruhlarga ajratish lozim: fiqhga oid muqaddimalar, hadisga oid muqaddimalar, kalomga oid muqaddimalar, tasavvuf va axloqqa oid muqaddimalar. Bunday tasnif uning ilmiy merosida qaysi tushunchalar qanday tarmoqlarda namoyon bo‘lishini aniqroq ko‘rsatadi.

Kavsariyning ilmiy merosini o‘zbek tilida o‘rganishda terminologik birlik ham muhim. “Ilm”, “mazhab”, “vasatiylik”, “ixtilof odobi”, “manbashunoslik”, “fatvo mas’uliyati” kabi tushunchalarni izohli tarzda berish maqsadga muvofiq. Chunki bu atamalar oddiy o‘quvchi ongida turlicha qabul qilinishi mumkin. Izohli lug‘at va tanlangan matnlar to‘plami ana shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, olim qarashlari bugungi diniy-ma’rifiy muhitda faqat tarixiy qiziqish ob’ekti emas. Ular diniy bilimni mas’uliyatli qabul qilish, mazhabiy merosni ilmiy anglash va bag‘rikenglikni dalil hamda odob bilan bog‘lash uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Bu asos muvozanatli diniy

ongni shakllantirishda, diniy bahslarni sog‘lomlashtirishda va jamiyatda ilmiy-ma’rifiy barqarorlikni kuchaytirishda amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning nazariy chegaralari va istiqbollari. Mazkur maqola Kavsariy merosining barcha qirralarini to‘liq qamrab olishni da’vo qilmaydi. Uning hadis ilmidagi tanqidiy qarashlari, fiqhiy istidloldagi uslubi, kalomiy bahslardagi pozitsiyasi va tasavvufga oid mulohazalari alohida keng tadqiqotlarni talab qiladi. Shu bois maqolada asosiy e’tibor uch tushuncha – ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik o‘rtasidagi nazariy bog‘lanishga qaratildi. Bu cheklov tadqiqotni bir markaziy savol atrofida jamlash imkonini berdi.

Olimning arab tilidagi matnlari qo‘lyozma va nashr nusxalari asosida qiyosiy o‘rganilishi kerak. Ayniqsa, “Muqaddimot”dagi har bir muqaddimaning qaysi asarga yozilgani, qaysi bahsga javob bergani va qaysi ilmiy maqsadni ko‘zlagani alohida jadvallashtirilsa, Kavsariyning manbashunoslik uslubi yanada aniqroq ochiladi. Bu ish olim tadqiqotlarini umumiy tavsif darajasidan analitik manbashunoslik bosqichiga olib chiqadi.

Shuningdek, Kavsariy merosini Markaziy Osiyo hanafiy-moturidiy an’anasi bilan qiyosiy o‘rganish istiqbolli yo‘nalishdir. Samarqand, Buxoro va Farg‘ona ilmiy muhitlarida shakllangan fiqhiy-kalomiy tafakkur bilan olim himoya qilgan sunniy meros o‘rtasida umumiy nuqtalar mavjud. Bu qiyos mahalliy diniy tafakkur tarixini keng islomiy ilmiy makon bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

Kavsariyning bag‘rikenglikka oid qarashlari dinlararo muloqot emas, avvalo, musulmon jamoasi ichidagi ilmiy ixtilof madaniyati doirasida shakllangan. Shu bois uning merosini tahlil qilishda “tolerantlik” so‘zini zamonaviy siyosiy ma’noda emas, balki “ixtilof odobi”, “ilmiy adolat” va “vasatiylik” tushunchalari bilan bog‘lab tushunish zarur. Bu aniqlashtirish maqola natijalarini nazariy jihatdan puxtalashtiradi.

Ushbu maqolada ko‘rsatilgan yondashuv Kavsariy merosini ta’lim jarayonida qo‘llash uchun ham asos beradi. Islomshunoslik, fiqh tarixi, kalom tarixi va tasavvuf tarixi fanlarida ushbu olim misoli orqali talabalarga manba bilan ishlash, mazhabiy merosni to‘g‘ri tushunish va ilmiy ixtilofni odob bilan baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu esa maqolaning nazariy ahamiyati bilan birga amaliy qiymatini ham oshiradi.

Nihoyat, Kavsariy merosini o‘rganishda ilmiy etika masalasi ham markazda turishi kerak. Uning tanqidiy matnlari zamonaviy tadqiqotchi uchun keskin ifoda namunasi emas, balki manbaga sodiqlik, dalilni tekshirish va xato nisbatni tuzatish mas’uliyati namunasi sifatida o‘qilishi lozim. Shunda olim merosi akademik bahslarni chuqurlashtiruvchi, lekin shaxsiylashtirmaydigan ilmiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kavsariy merosini baholashda yana bir muhim jihat uning asarlaridagi “merosni himoya qilish” va “yangi vaziyatga javob berish” o‘rtasidagi munosabatdir. U klassik an’anani muzeyda saqlanadigan qotib qolgan matnlar majmuasi sifatida emas, balki har bir davrning savollariga ilmiy mezon bilan javob bera oladigan tirik tafakkur maktabi sifatida ko‘radi. Shu bois uning qarashlari zamonaviy diniy-ma’rifiy tahlil uchun ham dolzarbdir.

Maqoladagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, Kavsariy merosi jamiyatda diniy muloqot madaniyatini yuksaltirish uchun nazariy asos bo‘la oladi. Bu asos uch talabni o‘z ichiga oladi: manbani to‘g‘ri bilish, mazhabiy usulni anglash va ixtilofda odobni saqlash. Mana shu uch talab birgalikda amal qilganida diniy bilim jamiyatda qarama-qarshilik emas, ma’rifat va barqarorlik omiliga aylanadi.

XULOSA

Maqolada Zohid Kavsariy qarashlarida ilm, mazhab va diniy bag‘rikenglik tushunchalari o‘zaro bog‘liq nazariy tizim sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi. Olimga ko‘ra, ilm manbaga tayanish, rivoyatni tekshirish, matnni tarixiy va usuliy kontekstda anglash hamda fatvo berishda mas’uliyatni his qilishdan iborat. Bu yondashuv din nomidan fikr bildirishni shaxsiy iddao emas, ilmiy-axloqiy mas’uliyat sifatida belgilaydi.

Mazhab Kavsariy nazdida shariatni anglashning tarixiy, metodologik va ijtimoiy tizimidir. U mazhabga ergashishni ko‘r-ko‘rona tobelik sifatida emas, mutaxassislikni tan olish, manbani to‘g‘ri o‘qish va diniy hayotni tartibga solish vositasi sifatida talqin etadi. Shu jihatdan mazhab diniy ixtilofni boshqarish, fatvo madaniyatini tartibga solish va jamoaviy barqarorlikni ta’minlash instituti sifatida baholanadi.

Diniy bag‘rikenglik Kavsariyda haqiqat mezonlaridan voz kechish emas. U vasatiylik, ixtilof odobi, dalilga tayanish va jamiyat birligini saqlash orqali namoyon bo‘ladigan muvozanatli munosabatdir. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, olimning merosida bag‘rikenglik alohida ijtimoiy shior sifatida emas, balki ilm va mazhabiy tartibning axloqiy natijasi sifatida talqin qilindi.

Kavsariyning fatvo berish va mazhabsizlik haqidagi tanqidlari hozirgi axborot jamiyati uchun ham ahamiyatlidir. Ilmiy tayyorgarliksiz diniy hukm tarqatish, manbani uzib talqin qilish va omma hissiyotiga ta’sir qilish diniy bag‘rikenglikni kuchaytirmaydi, aksincha, uni zaiflashtiradi. Shu bois hanafiy-moturidiy merosni ommaga tushuntirishda mazhabni tor guruhchilik sifatida emas, ilmiy maktab va ijtimoiy tartib instituti sifatida bayon etish maqsadga muvofiq.

Kelgusida Kavsariyning “Muqaddimot” asari fiqh, aqida, tasavvuf, manbashunoslik va diniy bag‘rikenglik kesishmasida yanada chuqur o‘rganilishi zarur. Xususan, uning hanafiy imomlari haqidagi muqaddimalari, moturidiylikka munosabati va sunniy tasavvufni baholash mezonlari alohida tadqiqot ob’ekti sifatida tahlil qilinishi mumkin. Shu bilan birga, olim asarlarining o‘zbek tilida tanlangan matnlar to‘plami va izohli lug‘atini tayyorlash keyingi tadqiqotlar uchun muhim manbaviy baza yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad Khayrī. (1994). Al-Imām al-Kawtharī. Qohira: al-Maktaba al-Azhariyya li-l-Turāth. [Imam al-Kawthari. Cairo (in Arabic)].
2. al-Kawtharī, M. Z. (1994). Maqālāt al-Kawtharī. Qohira: al-Maktaba al-Azhariyya li-l-Turāth. [Articles of al-Kawthari. Cairo. (in Arabic)].
3. al-Kawtharī, M. Z. (1997). Muqaddimāt al-Imām al-Kawtharī. Qohira–Bayrut: Dār al-Thurayyā. [Introductions of Imam al-Kawthari. Cairo-Beyrut. (in Arabic)].
4. al-Kawtharī, M. Z. (2012). Fiqh ahl al-‘Irāq wa ḥadīthuhum. Qohira: Dār al-Salām. [The Jurisprudence and Hadith of the People of Iraq. Cairo. (in Arabic)].
5. Baş, E. (2021). Son dönem Osmanlı âlimlerinden Muhammed Zâhid Kevserî’nin tasavvufun çeşitli meselelerine yaklaşımı. – İslam Tetkikleri Dergisi, vol. 11, № 2. [The Approach of Muhammad Zāhid al-Kawtharī, One of the Late Ottoman Scholars, to Various Issues of Sufism. (in Turkish)].

6. Bruckmayr, P. (2020). Salafī challenge and Māturīdī response: Contemporary disputes over the legitimacy of Māturīdī kalām. – Die Welt des Islams, vol. 60. – P. 293–325. [Salafi Challenge and Maturidi Response: Contemporary Disputes over the Legitimacy of Maturidi Kalam].
7. Hallaq, W. B. (2001). Authority, continuity and change in Islamic law. Cambridge: Cambridge University Press. [Authority, Continuity and Change in Islamic Law].
8. Hallaq, W. B. (2005). The origins and evolution of Islamic law. Cambridge: Cambridge University Press. [The Origins and Evolution of Islamic Law].
9. Özafşar, M. E. (1996). Muhammed Zâhid el-Kevserî: Hayatı, eserleri, tesirleri. İstanbul: Seha Neşriyat. [Muhammad Zāhid al-Kawtharī: His Life, Works and Influence. (in Turkish)].
10. Yavuz, Y. Ş. (2013). Zâhid Kevserî. – TDV İslâm Ansiklopedisi. İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Araştırmaları Merkezi. [Zahid al-Kawthari. In: TDV Encyclopedia of Islam. (in Turkish)].